

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DARSGA BO'LGAN PROAKTIVLIGINI OSHIRISH

Abdullayeva Madina Baxtiyorjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti, ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(Boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti.

Annotatsiya: ushbu maqolada darslarni tashkil qilish jarayonlarida innovatsion yondashuv asosida, boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga bo'lgan proaktivligini oshirish masali o'rganildi va taxlil qilindi.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, proaktivlik, diqqat “Avtofokus” metodi, interaktiv, integratsiya, fokus, enerjayzer, signal.

KIRISH

Davlatning ulug'vorligi ,buyukligi uning aholisiga bog'liq. Millat ziyoli, ilmga e'tiborli bo'lsalargina o'sha davlatda yuksalish bo'ladi. Zero ilm-bu yagona najoddir. Shuning uchun ham hozirgi kunda bizning mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayonlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan maktabgacha va maktab ta'lim tizimida tub islohotlar amalaga oshirilmoqda, darsliklar tubdan butun jahon standartlariga mos ravishda qaytadan ishlab chiqilmoqda. Bularning barchasi yosh kelajak avlodni kelgusida yetuk va malakali kadrlar qilib yetishtirish, hamda ilm fan sohasini yanada rivojlantirish uchundir.

Maktabgacha ta'lim tizmi va maktab ta'lim tizimlarining ozaro integratsiyalashgan holda oquvchilarni bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayonida boshlang'ich ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich ta'lim bu ikki tizimning o'rtasida ularni bog'lovchi ko'priq vazifasini bajarishi lozim. Chunki bolalar bog'cha davrida o'yin faoliyati bilan ko'proq shug'ullangan bo'lsalar, maktabda dars davomida tartibli va intizomli bo'lishlari talab etiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinflarda oq'tish davomida maktab tartib qoidalari, o'zini tutish, odaob-ahloq qoidalari ham o'rgatilib boradi . Boshlang'ich sinf o'quvchilarning dars jarayonlariga qiziqishi yuqori bo'lsada, dars jarayonlarid diqqatlarini jamlashga qiylanishadi. Bu esa darslarning sifat jihatiga salbiy ta'sir etadi.

Diqqat deb, ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga faol qaratilishini aytamiz.diqqat paytida ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishidan iborat. Bunda go'yoki ong doirasi anchagina tig'izlashadi.Ana shunday torayish va tormozlanish tufayliong doirasi juda ham yorqinlashadi. Ongning eng tormozlangan va eng yorqin nuqtasi diqqatning fokusi (ya'ni markazi) deb ataladi. Ana shu fokusga

tushgan barcha narsalar(idrok qilinayotgan predmetlar, tasavvurlar, fikrlar) juda to'la, yorqin hamda juda aniq aks etadi.

Diqqat har qanday faoliyatning zaruriy shartidir. Mana shu hol fransuz olimlaridan Kyuveni o'z zamonasida genialnikni chidamli diqqat deb ta'riflashga undagan edi. Masalan, u Nyutonning genialligini diqqatining kuchi va barqarorligidadir, deb ko'rsatadi. Nyutonning o'zi "Siz butin dunyo tortishish qonunini ochishga nima sababli muyassar bo'ldingiz" deb berilgan savolga: "Fikr-u zikrim doimo shu masalaga qaratilganligidan muyassar bo'ldim" deb javob bergan¹ Diqqat o'qish faoliyatining ham zaruriy shartidir. O'quvchilarning dars mavzu va materiallarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari ularning diqqatini jamlash qobiliyatlariga bog'liq. K.D Ushinskiyning aytishicha " diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshigidirki, onggimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi"

Ba'zi bir o'quvchilarda uchraydigan o'zlashtira olmaslik sababini avvalo uning diqqat ko'rsatkichlarini tekshirish orqali qidirishga urinish lozim. Har bir kasbiga vijdonan yondashadigan va mas'uliyatli pedagoglar o'quvchilarining diqqatini uyushtirish hamda uni uzoqroq davom etish chora tadbirlarini qo'llashi, bu yo'lda tinmay izlanib, yangi zamonaviy interaktiv metodlardan dars jarayonlarida samarali qo'llay olishlari kerak bo'ladi.

Zamonaviy dars berish usullaridan asosiysi "Interaktiv" metod bo'lib, hozirda uning qisman tarjimasini ko'p hollarda "Interfaol" deb yuritiladi, "interaktiv" atamasi aslida inglizcha "interactive" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro ta'sirlanish" ma'nosini bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o'zaro baxs- munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjihat bilan hal etish tushuniladi. Ammo ayrim o'quv qo'llanmalarini ko'rib chiqayotganimizda, "o'qitishning interaktiv metodlari" termini qo'llanilishini ham guvohi bo'lamiz. Ta'lim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Metodika bizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganimiz emas, balki bizning ta'lim jarayonini qanday tashkil qilishimizdadir.

Hozirgi kunda ko'plab zamonaviy interaktiv metodlar mavjud bo'lib, ularning dars samaradorligini oshirishdagi o'rni beqiyosdir. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqatini jamlashga ham yordam beradi. Bunday interfaol metodlardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz

"Aftofokus" metodi

Avvalo ushbu metod orqali o'qituvchi darsda qanday natijalarga erishishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

1. Bu metod yordamida o'quvchilarning darsga bo'lgan fokusini oshiramiz

¹ P.I.Ivanov, M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" – O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti . Toshkent-2014 b.257

2. O'quvchilarda proaktivlik shallanadi. Proaktivlik bu — o'zi qiziqqan fanida o'quvchilarning aktiv tarzda faol qatnashishi, savollar berishi, mavzuni tushunishga harakat qilishiga aytiladi.
3. Bu metodni barcha fanlarda ishlatish mumkin
4. Mavzu mohiyatini o'quvchilar kengroq va yaxshiroq tushunadi.
5. Dars mavzusiga oid asosiy ma'lumotlarni tez va oson esda saqlab qoladilar.

Bu metodni qo'llash uchun oldindan tayyorlangan qizil hamda yashil rabg'li kartochkalar va yana o'tiladigan dars mavzusiga oid savollar bo'lishi kerak. Kartochkalarining soni o'quvchilarning soniga pararel tarzda teng bo'lishi kerak. Dars boshida o'quvchilarga kartochkalar tarqatib chiqiladi va o'yin sharti tushuntiriladi, ya'ni dars davomida o'qituvchi qizil kortochka egalari turishlari kerakligini aytadi va turgan o'quvchilaridan ma'lum birini tanlab, hozir tushuntirgan ma'lumotiga oid savol beradi, agar o'quvchi javob bera olmasa boshqa turgan o'quvchilardan biror biri savolga javob topishi kerak bo'ladi. Dars davomida o'qituvchi qizil va yashil kortochkalar sohiblarini birin ketin turgizish va ularga savol berish orqali darsini samarali tashkil qiladi. Chunki o'quvchilar savollarni qaysi paytda va kimlarga berilishini bilishmaydi va butun dars davomida mavzuni ziyraklik bilan o'rganishadi. Savollarga javob berish orqali asosiy ma'lumotlar yodida yaxshi saqlanib qoladi. Bu metodni o'qish, ona tili tabiiy fan va shunga o'xshash boshqa fanlarda ham qo'llash mumkin bo'lib buning uchun alohida vaqt ajratilmaydi. Dars davomida o'tkzilib, o'quvchilarning turib o'tirish harakatlari orqali ularning faolligini oshiriladi va yanada dars mavzusuga diqqatlarini qaratishlari oson bo'ladi.

“Qarmoq” metodi

Bu metod darsga jumboq qo'shish orqali darsda o'quvchilaning diqqatini oshiruvchi metod hisoblanadi. Bunda o'qituvchi darsga ma'lum bir qiyin ammo juda qiziq bir savol yoki topishmoq, jumboq tayyorlab keladi. Dars boshida o'quvchilarga tayyorlagan topishmoq yoki savollini aytadi va o'quvchilarning javoblarini tinglagach to'g'ri javobni dars so'nggida aytishini va bunda qo'yiladigan shart esa o'quvchilarning darsda faol qatnashishlari kerak ekanligini bayon qiladi. Dars so'nggida esa o'qituvchi savolning javobini aytadi va izohlab beradi.

Ushbu metod orqali biz quyidagi natijalarga wrishishimiz mumkin:

1. O'quvchilarni o'ylashga va fikrlashga majbur qila olamiz.
2. Darsga jumboq qo'shish orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiramiz
3. Darsning yakunigacha intrigani saqlashga erishamiz
4. O'quvchilar tanaffusni emas, balki bizning so'zlarimizni tinglashni kutishadi.
5. O'quvchilarning tanqidiy fikrlashini o'stirishga va IQ darajasini oshishiga yordam beramiz.

“3 4 5 6” metodi

Bu metod orqali dars boshida fikrlari tarqoq o'quvchilarning diqqatini darsga qaratish hamda darga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga erishamiz.

Dars boshida o'quvchilarga fan yuzasidan kelib chiqib yoki, o'tgan dars mavzusiga bog'liq bo'lgan 3 harfli, 4harfli, 5 harfli hamda 6 harfli so'z yoki atama topishlari kerakligini aytiladi. Bu orqali o'quvchilar o'tgan dars mavzusini yoki umaman o'tgan barcha darslarida olgan bilimlarini hayolidan o'tkaza boshlaydi, ba'zi o'quvchilar esa daftar va kitoblarini varoqlashga tushadilar. Bu jarayon mobaynida esa o'quvchilar darsga diqqatlarini qaratadi va bilimlarini tekshirib ham oladilar. O'quvchilar topgan so'zlarini aytishadi, agar biror atama aytadigan bo'lishsa ulardan bu atamami izohlab berishi so'raladi. Shu tariqa o'quvchilar dars muhitiga oson va tez moslashib oladilar.

XULOSA

Xulasa qilib aytganda, ta'lim jarayonlarini tashkil etishda interfaol metodlarning roli kata bo'lib, bu metodlar orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari oshadi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni qo'lga kiritishlaridagi asosiy omillardan biri esa bu diqqatdir. Diqqat bu bir eshik bo'lib biz qo'lga kiritmoqchi bo'lgan barcha bilimlar shu eshik orqali o'tadi. Hozirgi glabollashuv davrida o'quvchilarning diqqatini dars jarayoniga jalb qilish va diqqatini ushlab turish bu dolzab masaladir. O'quvchilarning doim aktiv darsga qatnashishlari uchun esa o'qituvchilar tinmay o'z ustida ishlashi, o'zining kreartivliginini namoyish etib, darslarni yanada samarali tashkil qilishga intilishlari lozim. Shundagina farzandlarimiz fang ava ilmga chanqoq bo'lib yetishishadi.

REFERENCES

1. T.G'afforova “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”,-T: “Tafakkur” nashriyoti. 2011-yil.
2. P.I.Ivanov, M.E. Zufarova “Umumiy psixologiya”,-T: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2014-yil
3. N. Muslimov “Pedagogik kompotentlikva kreativlik asoslari”,-T: “Ilm ziyo” nashriyoti. 2015-yil.